INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF
Contemporary Pedagogical and Philological Research
2026 / No. 1(1)

SCIENCE CONNECTS PEOPLE

ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA FALSAFIY LIRIZM

Abjalova Gulandon

Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti(o‘zbek tili) 2-kurs talabas

Ilmiy rahbari:Nilufar Umarova Qarshi davlat universiteti dotsent.f.f.f.d

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Oripov she’riyatidagi falsafiy lirizmning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Shoirning lirik qahramon orqali inson ma’naviyati, tafakkur erkinligi va hayot qonuniyatlari haqidagi falsafiy qarashlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: falsafiy lirizm, lirik qahramon, obraz, inson va borliq, tafakkur, Tilla baliqcha, Temir odam,”Munojot”ni tinglab, Sarob.

Аннотация. В данной статье анализируются своеобразные особенности философского лиризма в поэзии Абдуллы Орипова. Освещаются философские взгляды поэта на духовный мир человека, свободу мышления и закономерности жизни, раскрытые через образ лирического героя.

Ключевые слова: философский лиризм, лирический герой, образ, человек и бытие, мышление, «Золотая рыбка» («Tilla baliqcha»), «Железный человек» («Temir odam»), «Слушая „Муноджот“» («Munojotni tinglab»), «Мираж» («Sarob»).

Abstract. (inglizcha): This article analyzes the distinctive features of philosophical lyricism in the poetry of Abdulla Oripov. It explores the poet’s philosophical views on human spirituality, freedom of thought, and the laws of life as expressed through the lyrical hero.

Keywords: philosophical lyricism, lyrical hero, image, human and existence, thought, The Goldfish (Tilla baliqcha), Iron Man (Temir odam), Listening to “Munojot” (Munojotni tinglab), Mirage (Sarob).

Kirish

Ba’zi shoirlar bor, ularning she’rlarini o‘qib zavqlanasiz. Ba’zi shoirlar esa she’ri tugagandan keyin ham sizni o‘ylashga majbur qiladi. Abdulla Oripov ana shunday

shoirlardan biridir. Uning she’rlarida insonning quvonchi, dardi yoki sog‘inchi tasvirlanadi, ammo bu tuyg‘ular ortida hayot haqidagi katta savollar yashirinadi. Balki shuning uchun ham uning she’rlari yillar o‘tsa-da, eskirmaydi.

Falsafiy lirizmda shoirning his-tuyg‘ulari hayot haqidagi mushohadalar bilan uyg‘unlashadi. Bunda lirik qahramon nafaqat his qiladi, balki mavjudlik, umr, inson va olam mohiyati haqida fikr yuritadi. Abdulla Oripov she’riyatining o‘ziga xosligi ham ana shu hissiyot va tafakkur birligida namoyon bo‘ladi.

Abdulla Oripovning birgina “Munojot”ni tinglab” she’rini tahlil qiladigan bo‘lsak, lirik qahramon o‘zgacha jozibali, yurakning tub-tubigacha kirib borib, hislarini junbushga keltiruvchi kuyni tinglar ekan, insoniyatning azaliy dardlari, hayot va borliq haqida mushohada yuritadi.

Qani ayt, maqsading nimadir sening, Nega tilkalaysan bag‘rimni ohang. Nechanchi kerak bo‘ldi senga ko‘z yoshim, Nechun kerak, rubob, senga shuncha g‘am.

Lirik qahramon kuy ta’sirida chuqur hayajonga tushadi, undagi dardning ildizlarini anglashga urinadi.

Kuy tirik mavjudotdek ingrab, nola qilishi uning ham vujudini titratadi.

Eshitib, to‘lg‘onib, ingranadi kuy Qaylardan kelmoqda bu Ohu faryod. Kim u yig‘layotgan, Navoiymikan, Va yo may kuychisi Hayyommikan, dod.

She’rni o‘qigan har bir jonni javobi mushkul savollar qiynaydi: Dunyoda nega buncha g‘am mavjud? Hayot inson uchun mehribonmi yo shafqatsiz? Asrlar davomida insoniyat qanday qilib bu qadar dardga chidab kelmoqda?

Ayniqsa, Nahotki, dunyoda shuncha g‘am bordir... Agar shu “Munojot” rost bo‘lsa agar.

misralarida insonning borliq oldidagi hayrati va iztirobi mujassam. She’r yakunidagi:

Kuyi shuncha bo‘lsa, g‘amning o‘ziga, Qanday chiday olgan ekan odamzot!

bayti esa asar falsafiy cho‘qqisini tashkil etadi.

Shoir fikricha, kuyda aks etgan dard shunchalik og‘ir bo‘lsa, odamzotning o‘zi bu g‘amlarni qanday ko‘tarib kelayotganiga hayron qolmaslik mumkin emas. Bu she’rni har gal qayta o‘qir ekanmiz, go‘yo qalbimizning eng chekka burchagida unutilib yotgan dardlarimiz bilan yuzma-yuz qolamiz, ammo ruhimizda ajib bir yengilik paydo bo‘ladi.

“Sarob” she’rida esa shoirning shaxsiy kechinmalari bilan bir qatorda inson va hayot, ezgulik va yovuzlik, orzu va haqiqat, muhabbat va nafrat o‘rtasidagi ziddiyatlar haqida chuqur mushohada yuritiladi.

Ilk misralardanoq lirik qahramon ruhiy tushkunlik holatida tasvirlanadi:

Olti oykim, she’r yozmayman, yuragim zada... Olti oykim o‘zgalarga tilayman omad. Olti oykim, do‘stlarim ham pana-panada Iste’dodim so‘nganidan qilar karomat.

Bu holat oddiy inqiroz emas, balki hayotning ma’nosi va insoniy qadriyatlar haqidagi falsafiy izlanishlarning boshlanishidir. Shoir bolalik xotiralariga qaytadi .Bolalik uning nazarida poklik, samimiyat va ishonch tomsolidir.

“Ko‘z oldimda shu qadarli pok edi olam, Go‘yo nurdan yaralgandi inson degan zot...”

O‘sha davrda dunyo go‘zal, insonlar esa nurdan yaralgandek tuyulgan.

Ammo ulg‘aygan sari hayotning boshqa qirralarini ko‘ra boshlaydi.

Adolatsizlik, hasad husumat va razilliklar uning orzularini, ishonchini yemira boshlaydi.

Ana shu o‘rinda she’rning asosiy falsafiy muammosi yuzaga chiqadi:inson haqidagi ideal tasavvur hamda real hayot o‘rtasidagi ziddiyat. Shoir:”Nechun ko‘pdir haligacha razil odamlar?-“deya savol qo‘yadi. Bu savolga javob izlash orqali inson tabiati haqida fikr yuritadi.

Umidsizlikni yengish uchun onaga muhabbat, Vatanga sadoqat va ezgulikka ishonch kabi qadriyatlarni ruhiy tayanchiga aylantiradi:

To‘nib qolgan yuragimga berib bir taskin, Yana quvnoq qo‘shiqlarni kuylay boshlayman. Ne tong, axir farzandmiz-ku shu zamonaga, Adirondack siynasidan farzand tonolmas, Qo‘l ko‘tarib bo‘larmidi axir onaga, Zotan, unga qo‘l ko‘targan-farzand sanalmas.

Abdulla Oripov falsafiy lirikasining yana bir muhim yo‘nalishi inson mohiyatini anglash bilan bog‘liq.”Temir odam” she’rida robot obrazi orqali ana shu masala yuritiladi. Robot ishlaydi, hisoblaydi, murakkab topshiriqlarni bajara oladi.

Ammo unda inson qalbi yo‘q .Chunki insoni inson qiladigan narsa aql emas, babalkqalbdir.

Mehr-muhabbat, sog‘inch, vijdon va hatto g‘am bo‘lmagan joyda mukammallik ham ma’nosizdir.

Balki u donodir, beqiyos, yakka, Balki yo‘q uning-chun biror muammo. Balki u hech qanday temir-tersakka A’lo vujudini egmaydi, ammo Ustoz, qalbi yo‘qdir uning ham, hayot. Uning ham ko‘zida chaqnamas hayot.

Robotning his-tuyg‘udan, qalb haroratidan mahrumligi tasvirlanar ekan, shoir zamonaviy insonning ham asta-sekin hissizlashib, ma’naviy olamidan uzoqlashib borayotganidan tashvishlanadi:

Hayotning poyonsiz ummoni ichra Bor shunday g‘ariblar-temirlar hissiz. Va lekin o‘zlarin temirmas sira, Muhtaram inson, deb atarlar, essiz... Temir odam yasab yurguncha, ko‘proq, “Jonli temirlar”ni o‘ylangiz, ustoz...

“Temir odam” she’rida insonning hissiy va ma’naviy qashshoqlashib, qalban temirlashib borayotganidan tashvishlansa, muhtasar, ammo katta falsafiy ma’noni o‘zida mujassam etgan “Tilla baliqcha” she’rida esa inson tafakkurining torayishi, dunyoni cheklangan qarashlar orqali anglash muammosiga e’tibor qaratadi.

Menga alam qilar tilla baliqcha, Bir ko‘lmak hovuz deb bilar dunyoni.

Shoir inson haqiqatni faqat o‘ziga ko‘ringan qismi bilan cheklanib qolmasdan, balki uning yashirin qirralarini ham izlashga, hayot mohiyatini anglashga chorlaydi.

Hayotning murakkab va ziddiyatli tabiati to‘g‘risida falsafiy mushohadalari “Hayot qonuniyati” she’rida yanada chuqurroq ochib berilgan.

Shoir nazarida, borliq mutlaq mukammallik asosida emas, balki qarama-qarshiliklar uyg‘unligida yashaydi.

Oqillar ko‘payib ketsa ham agar, Baribir yashaydi bitta devona.

Ushbu misralarda hayotning dialektik mohiyati ifodalangan bo‘lib, shoir yaxshilik va yomonlik, oqillik va nodonlik, baxt va baxtsizlik, muhabbat va nafrat bir-birisiz mavjud bo‘la olmasligini uqtiradi.

Negaki, dunyoda zulmat bo‘lmaganda hech kim yorug‘likning qadrini anglay olmasdi.

Boylar yer yuzini egallagan dam, Qaydadir bir yo‘qsil yurgaydir shaksiz. Dunyoni baxtlilar chulg‘aganda ham Ularning ichida uchrar bir baxtsiz .

Lirik qahramon mutlaq baxt degan tushuncha mavjud emasligini, har qanday mukammallik ichida ham nimadir yetishmasligini ta’kidlaydi.

Shoirning falsafiy mushohadalari “Miltiraydi mitti yulduz” va “Burgut” she’rlarida ham o‘ziga xos badiiy talqin topadi. “Miltiraydi mitti yulduz” she’rida o‘z yo‘lini yo‘qotgan, maqsadsiz qolgan inson qismati mitti yulduz timsoli orqali ifodalanadi:

Ko‘k gumbazin bir chetida Bo‘shliqlarga urib bosh. Miltiraydi mitti yulduz, Tanholikdan to‘kib yosh.

Shoir yulduzning yolg‘izligi va ojizligi tasviri orqali insonning ham jamiyatdan, o‘z e’tiqodi va maqsadidan uzoqlashganda ma’naviy tanazzulga yuz tutishini anglatadi. “Burgut” she’rida esa buning aksi kuzatiladi. Burgut obrazi yuksak maqsad sari intilish, matonat va iroda ramzi sifatida gavdalanadi. Cho‘qqilar sari parvoz qilayotgan burgut timsolida shoir insonning doimo kamolotga intilishi zarurligini ta’kidlaydi. Shu tariqa Abdulla Oripov falsafiy lirikasida inson va hayot masalasi turli ramziy obrazlar orqali yoritiladi. Agar “Temir odam” she’rida insoniy tuyg‘ularning so‘nishi xavfi, “Tilla

baliqcha”da tor dunyoqarash fojeasi ochib berilgan bo‘lsa, “Miltiraydi mitti yulduz” va “Burgut” she’rlarida insonning o‘zligini anglash hamda yuksak maqsad sari intilish g‘oyalari ilgari suriladi. Bu she’rlar mazmunan “Hayot qonuni” asari bilan hamohang bo‘lib, shoirning hayot haqidagi umumlashmalarini yanada teranlashtiradi.

Xususan, “Hayot qonuni” she’rida ilgari surilgan fikrga ko‘ra, hayot mutlaq mukammallikdan iborat emas. Borliqdagi har bir go‘zallik, har bir yutuq va har bir kamolot o‘z ichida qandaydir yetishmovchilikni ham yashirib turadi. Demak, insonning vazifasi mukammallikni topish emas, balki ana shu nomukammalliklarni anglagan holda yashash, izlanish va kamolot sari intilishdir. Abdulla Oripovning falsafiy lirikasini birlashtirib turuvchi asosiy jihat ham shundadir: shoir insonni hayotning murakkab haqiqatlari ustida mushohada yuritishga, o‘zligini anglashga va ma’naviy barkamollikka chorlaydi.

Shu sababli uning she’rlari nafaqat badiiy zavq uyg‘otadi, balki o‘quvchini hayot mazmuni haqida chuqur o‘ylashga undaydi.

Abdulla Oripov falsafiy lirikasida inson va hayot haqidagi teran haqiqatlar ramziy obrazlar orqali badiiy ifodalanadi. Shoir bir she’rida insonni ogohlantirsa, boshqasida uni yuksaklik sari chorlaydi. Uning lirik qahramoni doimo izlanishda, haqiqat va kamolot yo‘lidadir. Shu bois shoir she’rlari o‘quvchini nafaqat his qilishga, balki fikrlashga ham undaydi va falsafiy lirikaning yorqin namunasi sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Oripov .Saylanma. “Tafakkur qanoti”nashriyoti. Toshkent,2018

2. Abdulla Oripov .Mitti yulduz,”Manaviyat”.Toshkent,2002.

3. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar 1-jild.G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent,2000.